SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 12/2

2023

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3I12.1/2Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 12/2 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

## МУНДАРИЖА

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**


*Axmedov Oybek Saparbaevich*
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАСИНИНГ ЎРНИ ........ 10-18

*Нематова Мафтуна*
ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН ........ 19-24

*Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna*
MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI ........ 25-32

*Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi*
“SMILE” VA “TABASSUM” TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA) ........ 33-38

*Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna*
BADIIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI ........ 39-43

*Jumanova Shahnoza Ikromjonovna*
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O‘RNI ........ 44-50

*Achilov Oybek Rustamovich*
ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 51-57

*Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna*
XALQ NASRI JANRLARINING O’ZARO MUNOSABATLARI ........ 58-62

*Isroilova Manzura Jamolovna*
FRANSUZ KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI ........ 63-68

*Кенжабоев Шокир Абдулхалимович*
ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА ........ 69-74

*Fayziyev Bahodir Baxshullayevich*
J. K. ROULINGNING “GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH” ASARIDAGI TO‘QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O‘ZBEK TILLARIGA TARJIMASI ........ 75-79

*Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi*
OLAMNING O‘ZBEK LISONIY TASVIRIDA “FIDOIYLIK” KATEGORIYASI ........ 80-84

*Тухтаева Фарида Исматуллаевна*
ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК ........ 85-90

*Radjabova Dildora Raximovna*
PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI ........ 91-96

*Mansurova Shohista Ismailovna*
BADIIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI ........ 97-102

*Ermatov Ixtiyor*
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI ........ 103-108

*Axmedjanova Farida Djavairovna*
GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING ............................109-114

*Saitov Suxrob Djumaydillayevich*
ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN
TRAGEDIES IN THE STORY ............................115-119

*Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи*
ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР ............................120-124

*Toshpoʻlatova Xusniya Mamayusub qizi, Normatatov Farrux Komiljon oʻgʻli*
INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA
SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI ............................125-129

*Абдуманнонов Хожиакбар Акмалжон угли*
ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на
примере учебных пособий и словарей узбекского языка)............................130-136

*Абдуллаева Раъно Хикматовна*
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА ............................137-144

*Hamidova Sayyora Nurmatovna*
TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR............................145-151

*Rustamova Dilrabohon*
ATAMALAR LUGʻATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI ............................152-157

*Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna*
EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND
ARTISTIC LITERATURE ............................158-162

*Farmonov Nurbek Pulatovich*
WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH ............................163-169

*Xojiyeva Oynisa Shabonovna*
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI ........170-176

*Norqobilov Sanjar Rahmat ugli*
COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .......177-182

*Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich*
ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI ............................183-190

*Xoʻjamqulov Anvar Jozilovich*
OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI............................191-196

***12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР***

*Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманиязова Света Байниязовна*
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ
И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В
РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ............................197-203

*Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна*
СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР............................204-209

*Toshkanov Nurbek Bahriddinovich*
BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI
HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI ............................210-216

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li*
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI ..............217-223

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna*
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI ..........224-228

*Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li*
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH METODIKASI ..........229-233

*Pirimova Nargiza Adilovna*
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..........234-239

*Tangirqulov Elmurod Aliyarovich*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI ..........240-244

*Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li*
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI ..........245-258

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR TUSHUNCHASI ..........259-265

*Valieva Xolida*
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI ..........266-271

*Djumayeva Dildora Isroilovna*
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ..........272-277

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*
TA'LIM-ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI ..........278-285

*Mamaraimova Zebo Shafoatovna*
YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI ..........286-290

*Turayev Yolqin Sherzod o'g'li*
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILIY ASOSLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI ..........291-295

*Abdurasulova Shoira Kushakovna*
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ..........296-305

*Sottarov Abduvali Umirqulovich*
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI SIFATIDA ..........306-310

*Xushnazarova Ma'mura Nodirovna*
VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI ..............................311-315

*Xushvaqtov Umar Norqobilovich*
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI ..............................316-320

*Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna*
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ..............................321-326

*No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi*
BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI ..............................327-331

*Xalikov Faroxidin*
TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI ..............................332-339

*Abduvaxidov Xusan Abdukulovich*
OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH ..............................340-345

*Якубова Нафиса Одилжановна*
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..............................346-354

*Karimov Qayum Mamashayevich*
TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH ..............................355-360

*Yusupova Shoxista Alimjanovna*
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..............................361-371

*Касимов Ойбек Омилович*
СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОИДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ...372-378

*Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich*
MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI ..............................379-386

*Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович*
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ..............................387-394

*Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li*
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI ..............................395-400

*Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna*
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI ..............................401-406

*Khidirova Malakhat Qazakhovna*
ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES ....407-413

*Fayzullayeva Madina Abdumoʻmin qizi, Xolboʻtayeva Moxinur Temurboy qizi*
MENEJMENT SOHASINI OʻQITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ....414-420

*Achilov Nuriddin Abdugafforovich*
AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA’LIMOTINING ILMIY TADQIQI ....421-426

*Norinov Muxammadyunus Usibjonovich*
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BOʻLAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI ....427-432

*Begimqulov Zarif Axmadovich*
JISMONIY TARBIYA YOʻRIQCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI ....433-438

*Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi*
BOʻLAJAK BOShLANGʻICh SINF OʻQITUVChILARINING KOMMUNIKATIV KOʻNIKMALARINI RIVOJLANTIRISh SAMARADORLIGI ....439-443

*Jumayev Sirojiddin Zafarovich*
MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI OʻQITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH ....444-449

*Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna*
BOSHLANGʻICH SINF OʻQITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ....450-457

*Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich*
BOSHLANG`ICH SINF OʻQITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ....458-463

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 12/2 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*12.00.00– Юридик фанлари*

**Toshkanov Nurbek Bahriddinovich,**
Toshkent davlat yuridik
universiteti tayanch doktoranti

# BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI

**Annotatsiya.** Maqolada sanoat (industrial) iqtisodiyotidan bilimlar iqtisodiyotiga o'tish sharoitida intellektual mulkni tijoratlashtirishning ayrim huquqiy jihatlari tahlil qilingan. Xalqaro va milliy darajada intellektual mulklarni tasarruf etish masalalariga to'xtalib o'tilgan. Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot tashkilotlarining bunda tutgan o'rni qisqacha bayon qilingan. Xorijiy tajriba va amaldagi milliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda taklif-tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Bilimlar iqtisodiyoti, intellektual kapital, Universitet 4.0, ta'lim, ilmiy-innovatsion ishlanmalar.

**Toshkanov Nurbek Bahriddinovich,**
PhD student of Tashkent
State University of Law

# KNOWLEDGE ECONOMY AND INTELLECTUAL PROPERTY: SOME LEGAL ASPECTS AND PROBLEMS OF COMMERCIALIZATION

**Annotation.** The article analyzes some legal aspects of the commercialization of intellectual property in the context of the transition from an industrial economy to a knowledge economy. Issues related to the disposal of intellectual property at the international and national levels were discussed. The role of higher educational institutions and research organizations in this is briefly characterized. Recommendations are given taking into account foreign experience and modern domestic conditions.

**Keywords:** Knowledge economy, intellectual capital, University 4.0, education, scientific and innovative developments.

**Тошканов Нурбек Бахриддинович,**
Базовый докторант Ташкентского
государственного
юридического университета

# ЭКОНОМИКА ЗНАНИЙ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ СОБСТВЕННОСТЬ: НЕКОТОРЫЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ И ПРОБЛЕМЫ КОММЕРЦИАЛИЗАЦИИ

**Аннотация.** В статье анализируются некоторые правовые аспекты коммерциализации интеллектуальной собственности в условиях перехода от индустриальной экономики к экономике знаний. Обсуждены вопросы распоряжения интеллектуальной собственностью на международном и национальном уровне. Кратко охарактеризована роль высших учебных заведений и научно-исследовательских организаций в этом. Рекомендации даны с учетом зарубежного опыта и современных отечественных условий.

**Ключевые слова:** Экономика знаний, интеллектуальный капитал, Университет 4.0, образование, научные и инновационные разработки.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N33

**Kirish.** Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari boʻyicha kengashning joriy yil 13 oktyabr kuni Qozogʻiston poytaxti Ostona shahrida boʻlib oʻtgan navbatdagi sammitidagi nutqida quyidagi fikrlarni bildirib oʻtgan edi:

“Jahon sanoat inqilobining yangi bosqichiga oʻtishning asosi boʻlgan **bilimlar iqtisodiyotini** rivojlantirish barqaror taraqqiyotga qarshi qaratilgan tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi. Innovatsiyalar transferi sohasidagi salohiyatni yanada toʻliq ishga solish, raqamlashtirishni faol ragʻbatlantirish, “bulutli” texnologiyalar, sun’iy intellekt, “buyumlar interneti”ni rivojlantirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu yoʻnalishlarda Osiyo mamlakatlari global darajada yetakchi boʻlishga birgalikda erishish uchun barcha imkoniyatlarga egadir [1]”.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mazkur maqolada asosiy metodlar sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy sharhlash hamda tizimlashtirish usullari tanlab olindi.

***Xoʻsh, biz uchun ham, mintaqamiz uchun ham juda muhim boʻlgan bilimlar iqtisodiyotining oʻzi nima?***

“Bilimlar iqtisodiyoti” tushunchasi uning nomidan ham ma’lumki, iqtisodiy kategoriya hisoblanadi va iqtisodiyot sohasidagi olimlar tomonidan oʻrganilib kelinmoqda.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Ahmadjon Mamatovning fikricha, bilimlar iqtisodiyoti inson kapitalini koʻpaytirish va hayot sifatini yaxshilash maqsadida yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar va sifatli xizmatlar bilan ta’minlash tizimidir [1]

M.V.Chensova fikriga koʻra bilimlarga asoslangan iqtisodiyot oʻz ichiga toʻrtta iqtisodiyotni jamlaydi:

- postindustrial iqtisodiyot. Bilimlar iqtisodiyotida postindustrial iqtisodiyotga xos xizmatlar sohasi ustunlik qiladi;
- axborotlar iqtisodiyoti. Bilimlar iqtisodiyoti axborotsiz ishlay olmaydi, u asosiy rolni egallaydi;
- innovatsion iqtisodiyot. Innovatsion iqtisodiyot bilimlarsiz boʻlmagani kabi, bilimlar iqtisodiyoti ham usiz yasholmaydi, chunki jamiyatning oʻsib borayotgan extiyojlarini qondirish innovatsiyalarni qoʻllagan holda amalga oshiriladi;
- global tarmoq iqtisodiyoti. Bugungi kunda bilimlar iqtisodiyoti global internet tarmogʻisiz yashay olmaydi. Chunki u masofaviy iqtisodiy munosabatlarni ta’minlab turadi [2].

Ushbu olimlarning barcha fikrlariga qoʻshilgan holda aytish mumkinki, bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi nomoddiy aktivlarning ulushi yildan-yilga oʻsib bormoqda. Butunjahon Intellektual mulk tashkilotining statistik hisoblariga koʻra jahon iqtisodiyotida nomoddiy aktivlarning miqdori 74 trln AQSH dollariga yetib, butunjahon iqtisodiyotining 25 foizini tashkil etmoqda. 1996 yilda mazkur koʻrsatkich 6 trillion dollarni tashkil etmoqda [3].

“McKinsey Global” tadqiqot instituti hisob-kitoblariga koʻra Xitoyda yaqin kelajak – 2025 yilda yalpi ichki mahsulotning 22 foizgacha oʻsishi internet texnologiyalari hisobidan sodir boʻlishi mumkin. AQSHda 2025 yilda raqamli texnologiyalar hisobidan yaratilgan qiymatning kutilayotgan hajmi 1,6-2,2 trillion dollarni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Bilimga asoslangan korporatsiya va kompaniyalarning qiymati ham shunchalik darajada oʻsganki, misol uchun “Apple” kompaniyasining bozor qiymati – 2 trln. AQSH dollari, Amazon – 1,66 trln. AQSH dollari, “Microsoft” – 1,6 trln. AQSH dollari, “Facebook” – 731 mlrd. AQSH dollari. 2022 yilda Oʻzbekistonda yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi joriy narxlarda 888,3 trln soʻmni tashkil etdi. Quyidagi diagrammada “Facebook”, yaʼni “Meta” kompaniyasining va Oʻzbekiston YAIMning oʻzaro solishtirmasini koʻrishimiz mumkin [4]:




Bilimlar iqtisodiyotida avvalgidek yengil yoki ogʻir sanoat mahsulotlari emas, balki texnologiyalar, ularga oid bilimlar transfer qilinadi. Asosiy oʻrinni intellektual kapital egallaydi. Tovar sifatida biz hammamiz biladigan moddiy ashyolar emas, balki nomoddiy ashyolar – intellektual mulk obyektlari harakatlanadi. Bu esa mazkur obyektlarni tijoratlashtirishni taqozo etadi. Yaʼni mahsulot yoki tovar emas, bilim va texnologiya eksport-import qilinadi.

Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishga iqtisodiy kategoriya sifatida qaralsada, bilimlar iqtisodiyotida ularni tijoratlashtirishning huquqiy, shu jumladan, shartnomaviy-huquqiy mexanizmlari katta oʻrin egallaydi. Busiz bozordagi munosabatlarni tartibga solish imkonsiz. Aynan mana shu nuqtada iqtisodiyot va huquqning kesishuviga guvoh boʻlishimiz mumkin.

**Muhokama.** Professor B.K.Xodjayevning fikricha, hozirgi kunda aksariyat rivojlangan davlatlar tajribasida intellektual mulk huquqidan foydalanishning quyidagi anʼanaviy usullari mavjud:

1. Toʻgʻridan-toʻgʻri foydalanish: intellektual mulk egasining oʻzi tomonidan foydalanilishini bildiradi. Mazkur usul mahsulot va xizmatning raqobatbardoshligini taʼminlashda muhim oʻrin tutadi.

2. Bilvosita foydalanish: intellektual mulk egasining ruxsati bilan uchinchi shaxslar tomonidan foydalanishni nazarda tutadi.

3. Intellektual mulk huquqini sotish: intellektual mulk huquqiga nisbatan franchayzing yoki litsenziya berish orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, intellektual mulk egasi uchinchi shaxslar bilan strategik alyanslarning va hamkorlikda yuridik shaxs (qoʻshma korxona) taʼsis etishlari mumkin [5].

Strategik alyans (ittifoq) – bu tashkilotlar oʻrtasidagi biznes munosabatlari boʻlib, ushbu biznes munosabatlarida ular turli xavf-xatarlarni birgalikda qabul qiladilar, oʻzlarining kuchli tomonlarini birlashtiradilar va oʻzaro manfaatlarga erishish uchun biznes funksiyalarini

birlashtiradilar. Ayni paytda, bu uchun alohida yuridik shaxs tashkil etilmaydi [6]. Ma'lum bir maqsadga erishilgach bu biznes ittifoq tarqab ketishi ham, oʻz faoliyatini boshqa maqsadlar uchun davom ettirishi ham mumkin.

Bu ittifoqlar koʻproq xalqaro miqyosda tuzilishi kuzatiladi. Misol sifatida kompyuter texnologiyalari (PowerPC arxitekturasi)ni yaratish yuzasidan IBM va Motorola, IBM va Apple ittifoqlarini keltirish mumkin [7]. Bu koʻproq milliy qonunchiligimizdagi oddiy shirkat shartnomasiga oʻxshab ketadi.

B.Xodjayev tomonidan intellektual mulkni tijoratlashtirishning aynan an'anaviy usullariga alohida urgʻu berilgani bejiz emas. Negaki, raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan bir davrda intellektual mulkning noan'anaviy obyektlari vujudga kelmoqda. Oʻz navbatida, bu bilimlar transferining yangicha usullarini yaratmoqda. Masalan, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan intellektual mulk obyektlariga nisbatan shaxsiy nomulkiy huquqlar va mulkiy huquqlar kimga tegishli boʻlishi masalasi boʻyicha ham turli qarashlar mavjud. Shu bilan birga, uni tijoratlashtirish kim tomonidan amalga oshirilishi masalasida ham bahslar mavjud.

Garchi Oʻzbekiston (FK 1044-moddasi) va boshqa davlatlar, xususan, Avstraliya, Buyuk Britaniya [8] qonunchiligida insonning bevosita individual asar yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyati amalga oshirilmasdan, muayyan turdagi ishlab chiqarish uchun moʻljallangan texnika vositalari yordamida olingan natijalar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanmasligi belgilangan boʻlsada, ayrim olimlar bu fikrda emas.

M.O.Kuxno fikricha, sun'iy intellekt faoliyati natijalarining huquqiy kvalifikatsiyasi haqida savol tug'ilganda har bir holatda individual yondashuv talab etiladi: ba'zi hollarda intellektual mulk huquqlari bilan huquqiy himoyalanishning maqbulligi haqida gapirish mumkin boʻlmaydi, boshqalarida – bunday huquqiy tartibga solinishi zarur boʻlgan doirada amaldagi qonunchilik bilan ishlashi mumkin [9].

Morxat P.M. esa sun'iy intellektni ma'lum bir maqsad uchun (masalan, bojxona amaliyoti) yaratilgan zaif intellektga va oʻzini oʻzi ta'minlab, rivojlantira oladigan kuchli intellektga ajratadi. Ikkinchi holatda istiqbolda alohida individ shakllanishi mumkinligiga ishoralar keltirgan. Bu esa uning kelajakda huquqiy subyekt sifatida oʻzi yaratgan intellektual mulk obyektini tijoratlashtirish mumkinligini ham anglatadi [10].

I.Rustambekov fikricha, sun'iy intellekt olimlar uchun qoʻshimcha manba boʻlishi kerak, u inson ijodkorligi va mulohazalarini oʻzgartirmasligi lozim. Sun'iy intellekt tizimlari kashfiyot va eksperimentlarda muhim ahamiyat kasb etish bilan birga javobgarlik, mualliflik va intellektual mulk bilan bogʻliq murakkab savollarni keltirib chiqaradi [11].

Bizningcha, sun'iy intellekt, ayni paytda, huquq subyekti emas. Biroq huquq subyekti sifatida tan olinishi ehtimoli ham yoʻq emas. Shu sababli sun'iy intellekt haqidagi mulohazalardan chekingan holda mavzumizga qaytishimiz maqsadga muvofiq.

Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida innovatsion faoliyat va yaratilgan intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishni amalga oshirish sohasida shartnomaviy mexanizmlar belgilangan.

Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish, asosan, quyidagi an'anaviy shartnoma konstruksiyalari orqali amalga oshirilishi mumkin:

- litsenziyalash;
- mutlaq huquqlarni oʻtkazish (begonalashtirish);
- kreditlash;

- venchur moliyalashtirish;
- kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing);
- tijorat siri hisoblangan oshkor qilinmaydigan ma’lumot va nou-xaularni o‘tkazib berish;
- mualliflik buyurtmasi shartnomasi va mualliflik shartnomasi.

**Natijalar**. Shu bilan birga, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishda oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining roli kattadir. Zero, mashhur Silikon vodiysi yuragi va asosi Stenford universiteti hisoblanadi [12].

Bugungi kunda yurtimizda ham Universitet 4.0 konsepsiyasi ilgari surilayotgan ekan, universitetlar haqiqatdanda milliy iqtisodiyotning sanoat va ishlab chiqarish sohalarini fundamental o‘zgartirib, yangi yo‘nalishlarni ochish, xarajatlarni maksimal darajada minimallashtirish orqali daromadlarni maksimallashtirish, inson omilini cheklash orqali iqtisodiyotning har bir jabhasini raqamlashtirishga erishish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi yangi innovatsion modellarni taklif qilish bilan shug‘ullanishi lozim [13].

Biroq 2022 yil yakunlariga ko‘ra OTMning asosiy daromadini talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish uchun tushgan tushumlar (71,6 foiz) tashkil etgan [14]. Bu Universitet 2.0 ning belgilaridandir.

Bundan tashqari ilm-fan uchun xorijiy grantlar va investitsiyalar jalb qilinishi har doim zarur bo‘lsada, ularni O‘zbekistonga olib kirish va tasarruf qilishning huquqiy mexanizmlari yo‘qligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, Yaponiyada dissertatsiya yoqlab kelgan olim Iskandar Abdullayev O‘zbekistonda biologik tadqiqotlar o‘tkazish uchun Jahon bankidan 600 ming AQSH dollari miqdoridagi grant yutgan. Mablag‘larni olishda O‘zbekiston tomonida muammo bo‘lgan. Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik e’tibori natijasida pullar 2,5 oy deganda ilmiy muassasa hisob raqamiga o‘tkazib berilgan [15].

Bu kabi holatlarning mavjudligi amaldagi qonunchilikni xalqaro tajriba, jumladan, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o‘rgangan holda takomillashtirishni taqozo etadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilarga keltirilgan fikr-mulohazalarga ko‘ra quyidagi **xulosalar**ga kelindi:

1) Jahon iqtisodiyotida nomoddiy aktivlar ulushi ortib bormoqda va iqtisodiyotni xomashyo yoki tayyor mahsulot bilan emas, balki inson kapitali, bilim va innovatsiyalar salmog‘i bilan oshirishni taqozo etmoqda;

2) Sun’iy intellektning huquq subyekti sifatida maqomi borasidagi qarashlar o‘zgarib bormoqda;

3) Ma’lum bir iqtisodiy, ilmiy-innovatsion va tijoriy maqsadlarga erishish uchun o‘zaro raqobatchi kompaniyalarning xalqaro kooperatsiya (shirkat)larga birlashish holatlari kuzatilmoqda;

4) O‘zbekiston sharoitida intellektual mulkni tijoratlashtirishning huquqiy mexanizmlari yaratilgan bo‘lsada, ularni takomillashtirish va ayrim yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish zarurati mavjud.

Shundan kelib chiqib, quyidagi **takliflarni** bildirishni o‘rinli deb o‘ylaymiz:

Sun’iy intellektning huquqiy maqomini qonunchilikda uzil-kesil belgilash;

Davlat ilmiy tashkilotlari, shu jumladan, oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan yaratilgan intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning huquqiy mexanizmlarini qayta ko‘rib

chiqish, zarur holatda alohida normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish (AQSH, Yaponiya, Germaniya, Belarus tajribasi asosida);

Butunjahon intyellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan universitetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun ishlab chiqilgan Universitetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalarining intellektual mulk siyosati toʻgʻrisidagi Namunaviy nizomni Oʻzbekiston oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga tatbiq qilishning huquqiy va amaliy choralarini koʻrish (Rossiya, Belarus tajribasi);

Har bir oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining intellektual mulk siyosati boʻlishi lozimligini shart qilib qoʻyish.

## Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Авазбек Худойқулов, Билимлар иқтисодиёти: тафаккур ҳодисасига ўтувчи кўприк. URL: https://yuz.uz/news/bilimlar-iqtisodiyoti-tafakkur-hodisasiga-otuvchi-koprik.
2. Ченцова М.В. Концепция экономики знаний как новое направление формирования современной экономической парадигмы. Вестник ФА. №1. 2018. - С. 121.
3. Энни Браун (Brand Finance), Джек Грегори (ВОИС) и Саша Вунш-Винсент (ВОИС). В 2021 году стоимость нематериальных активов всех публичных компаний достигла 74 трлн долл. США: среди стран с высоким и средним уровнем дохода больше всего предприятий, активно использующих нематериальные активы, находится в США и Китае соответственно // URL: https://www.wipo.int/global_innovation_index/ru/news/2022/news_0007.html.
4. Х.Раджапов. Интеллектуал мулк соҳасидаги халқаро стандартлар ва уни Ўзбекистонда қўллаш масалалари "Инновация ва интеллектуал мулк соҳасидаги халқаро стандартларни Ўзбекистонда қўллаш муаммолари: интеллектуал мулк объектлари тижоратлаштириш ва баҳолаш" мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2020 йил 29 сентябрь) – 9-бет.
5. Б.К.Ходжаев. Интеллектуал мулкни тижоратлаштиришнинг умумий масалалари. "Инновация ва интеллектуал мулк соҳасидаги халқаро стандартларни Ўзбекистонда қўллаш муаммолари: интеллектуал мулк объектлари тижоратлаштириш ва баҳолаш" мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2020 йил 29 сентябрь) – 72-бет.
6. Алексеев А.Н., Тришин А.А. Стратегический альянс: сущность и цели создания. Вестник Университета Российской академии образования №2, 2016. Стр. 145.
7. Алексей Бабина. Международные стратегические альянсы. Банкаўскі веснік, Кастрычнік 2007. Стр. 46.
8. Закон Австралии от 1968 года № 63 (ред. от 2018 года) "Об авторском праве". - 1968. - 616 p. - URL: https://www.legislation.gov.au/Details/C2019C00042 // Закон Великобритании от 1988 года "Об авторском праве, дизайне и патентах" (Copyright, Designs and Patents Act 1988). - 1988. - 398 p. - URL: https://docplayer.net/20926289-Copyright-designs-and-patents-act-1988.html.
9. Искусственный интеллект – новый субъект авторского права: недалекое будущее или фикция? Интернет-сайт журнала Суда по интеллектуальным правам

(www.ipcmagazine.ru) URL: http://ipcmagazine.ru/asp/artificial-intelligence-a-new-subject-of-copyright-the-near-future-or-fiction.

10. Морхат П. М. Правосубъектность искусственного интеллекта в сфере права интеллектуальной собственности: гражданско-правовые проблемы / П. М. Морхат. - 2018. - С. 106-197. - 420 с.
11. https://t.me/tsulofficial/15234.
12. Махфуза Рўйиддинова. Силикон водийси нима учун ва қандай яралди? URL: https://ict.xabar.uz/mualliflar/maxfuza/nima-uchun-va-qanday-silikon-vodiysi-yaraldi.
13. Қ.М.Меҳмонов. Интеллектуал мулк объектларини тижоратлаштиришнинг айрим жиҳатлари. Интеллектуал мулкни тижоратлаштиришнинг умумий масалалари. "Инновация ва интеллектуал мулк соҳасидаги халқаро стандартларни Ўзбекистонда қўллаш муаммолари: интеллектуал мулк объектлари тижоратлаштириш ва баҳолаш" мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2020 йил 29 сентябрь) – Т.: ҲСТИ, Электрон нашр, 2020 й. – 77-бет.
14. 2022 йилда энг кўп даромад ва зарар кўрган олий таълим муассасалари маълум қилинди. URL: https://m.kun.uz/news/2023/02/24/2022-yilda-eng-kop-daromad-va-zarar-korgan-oliy-talim-muassasalari-malum-qilindi.
15. Жаҳон банкидан 600 минг доллар грант ютган ўзбек олими маблағини ололмаяпти URL: https://kun.uz/news/2021/10/18/innovatsiya-vazirligi-yetkazib-bergan-664-ming-dollarlik-ilmiy-laboratoriya-asbob-uskunalari-ishlatilmayotgani-aniqlandi.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V3I12.1/2Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/2 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).